

TASVIRIY SAN'ATDAN O'QUVCHILARNI GURUHLARGA AJRATISH YUZASIDAN O'TKAZILADIGAN PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TASHXIS.

Abduqaxorova Muslimaxon Mirzabahrom qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Magistratura bo'limi Tasviriy san'at yo'nalishi 1-bosqich magistranti abduqahhorovamuslima11@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san'at fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni guruhlarga ajratishda amalga oshiriladigan psixologik-pedagogik tashxis masalalari yoritilgan. Unda o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlari, ijodiy qobiliyatlari, qiziqishlari va tasviriy faoliyatga bo'lgan munosabatini aniqlash orqali samarali ta'lim jarayonini tashkil etish yo'llari tahlil qilinadi. Psixologik-pedagogik tashxisning o'quvchilarni to'g'ri guruhlash, ularning ijodiy faolligini oshirish hamda ta'lim samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanishning afzalliklari ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, psixologik-pedagogik tashxis, o'quvchilarni guruhlash, individual yondashuv, ijodiy qobiliyat, pedagogik diagnostika, ta'lim jarayoni, o'quvchi psixologiyasi, ijodkorlik.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning individual xususiyatlari va aqliy rivojlanishini bilish, qobiliyatini aniqlash, shuningdek ta'lim jarayonida "Muvaffaqiyat qozonish" xolatini hosil qilishda zamonaviy psixodiagnostik metodlaridan foydalanish dolzarb masalardan biridir. Bola shaxsining guruhli va jamoaviy muhitda shakllanishida o'quv jarayonida vujudga keladigan munosabatlar, individual yondashuvni amalga oshirish uchun tasviriy san'at o'qituvchisi uchun bunday bilim va ko'nikmalar mutlaqo zarurdir. Albatta, psixodiagnostik yordamni maktab psixologidan ham olish mumkin, lekin olib borilgan tadqiqotlarimizdan shu holatlar ma'lum bo'ldiki, maktab psixologlari tomonidan olib borilgan tashxislash metodlarida tasviriy san'at yuzasidan bolalarning qobiliyatlarini aniqlashda yetarlicha iashxislash ishlari olib borilmagan. Shuning uchun pedagogik jarayonni psixologik baholashda tasviriy san'at fani o'qituvchisi olib borsa samara natijasi yuqoriroq bo'ladi.

Ma'lumki, individual yondashuv deganda sinf o'quvchilarini o'quv imkoniyatlariga ko'ra va uchdan ortiq guruhlariga ajratgan holda ta'lim berish uslublari majmuasi tushuniladi. "Tabaqalashtirilgan ta'limning o'ziga xos murakkab muammolaridan biri pedagogik-psixologik tashxis masalasidir, Darhaqiqat, aynan psixologik-pedagogik tashxisni to'g'ri amalga oshirish orqaligina sinf o'quvchilarini ularning imkoniyatlariga ko'ra to'g'ri taqsimlash, guruhlariga ajratish mumkin va bu tabaqalashtirilgan ta'limining deyarl eng asosiy, eng og'ir va muammolarga boy tomonini tashkil qiladi" deb ta'kidlaydi dots. K.B. Qodirov.²⁰

Ta'kidlash joizki, individual ta'limda pedagogik va psixologik tashxis amaliyoti uzviy bog'liq holda, yaxlit ravishda, birgalikda olib borishi zarur, aks holda tashxis natijalarida nomutanosibliklar, ziddiyatli holatlar, tushunmovchiliklar vujudga kelishi mumkin. Agar bu pedagogik yoki psixologik tashxis usullarini birma-bir ko'zdan kechiradigan bo'sak, ularning ko'plab turlari, ko'rinishlari mavjudligiga, cheksiz miqdorda yangilarini ishlab chiqishga sharoit borligiga guvoh bo'lamiz. Masalan birgina psixologiya fanida badiiy fanlar, matematika, tilshunoslik, texnika va boshqa yo'nalishlardagi qobiliyatlar va layoqatlarni aniqlashga qaratilgan o'nlab metodikalar ishlab chiqilganligi ma'lum. Yoshlarning qiziqish va mayllari, xissiy va irodaviy xislatlari, xarakteri, mijoziy xususiyatlari, bilish jarayonlari idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol, nutqni tadqiq etishga qaratilgan yuzlab psixodiagnostik (Psixodiagnostika (grekcha psyché — ruh va diagnostikos — bilishga qodir) — psixologik fan sohasi bo'lib, shaxsning individual — psixik xususiyatlarini o'lchash va aniqlash usullarini ishlab chiqadi) metodikalarni sanab o'tish qiyin emas.

Maktab o'quvchilari o'quv faoliyatining muvaffaqiyati ulaming qobiliyatlariga, layoqatlariga, qiziqish va mayllariga, xissiy olamiga, irodaviy xislatlariga, xarakter xususiyatlari va mijozlariga, bilish faoliyatlariga, shu jumladan diqqat, xotira, tafakkur, xayol jarayonlariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Biroq biz psixologik xususiyatlarning har birini alohida tadqiq qilishga yoki tashxis etishga urinadigan bo'lsak, o'quvchining o'quv faoliyatiga katta ziyon yetkazgan holda surunkali, zerikarli bir psixologik jarayonga aylantirib qo'yishimiz mumkin. Qolaversa, pirovard natijada bunday ashaddiy "tashxisbozlikdan" na o'quvchilar va na

²⁰ Qodirov KB. Tabaqalashtirilgan ta'limda psixologik-pedagogik tashxis. Maktab o'quvchilari bama oliy O'quv talabalan uchun ilmiy—metodik tavsiyalar. —Toshkent: O'zPFITI 2005.—27 b.

o'qituvchilar manfaat ko'radilar, balki bu ta'lim jarayoniga xalaqit berib, o'qituvchi va o'quvchi diqqatni o'quv predmetlarini o'zlashtirish bilan emas, tashxis natijalari bilan band bo'lib qolishi mumkin.

Tasviriy san'atda pedagogik-psixologik tashxisning tutgan muhim o'rni shundaki, har bir o'quvchining individual xususiyati hisobga olingan holda, ularning bilim, ehtiyojiga mos ta'lim mazmunini darajama-daraja taqdim etib boriladi. Demak, pedagogik-psixologik tashxis ishlarini amalga oshirish muammolarini hal etishdan avval nimani tashxis qilish, nimani aniqlash, o'quvchilar nimani bilishlari va bajara olishlari kerakligini, ta'lim olganlikni miqdor va sifat jihatdan ob'ektiv o'lchash uchun qanday mezonlarga tayanish lozimligini ilmiy asosda hal etish muhimdir.

Tasviriy san'at darslarida o'quv imkoniyatlariga ko'ra o'quvchilarni tiplarga ajratish uchun ana shunday ma'nodagi psixologik tashxisni amalga oshirishga, butun boshli psixologik testlar va hokazolarni ishga solishga to'siq bo'layotgan narsa, faqatgina ularning ko'p vaqt olishi, mutaxassisdan kuch, bilim va mahorat talab etishi emas, albatta. Asosiy sabab shundaki, bunday murakkab, chuqurlashtirilgan tashxisdan olingan ma'lumotlar shunchalik chigallashib ketadiki (agar shu sohaning yirik, yuqori malakali mutaxasisi bo'lmasa) ulami umumlashtirib biron bir jo'yali xulosaga kelish imkoniyati bo'lmay qolishi mumkin. Oddiy misol: har qanday o'quvchining o'z diqqatini jamlay olishi, o'quv materiallarini esda saqlay olishi, rasm chizishi yoki biron buyum yasashni yaxshi ko'rishi, fikrlash qobiliyati ko'p jihatdan uning ehtiyojlariga, motivatsion olamiga, ya'ni xohish-istaklariga, aqliy rivojlanish, oilasidagi ma'naviy, ma'rifiy moddiy muhit kabi ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi. Demak, pirovard natijada o'quvchining psixologik (ichki) xususiyatlaridan ko'ra uning tasviriy san'at predmetini qay darajada o'zlashtirishini kuzatish yoki atrofdagilaridan so'rab bilish orqali o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabatlari va o'quv imkoniyatlari haqida umumlashtirilgan tarzda, yetarlicha ishonchli darajada ega bo'lishi mumkin.

Tasviriy san'at ta'limida o'quvchilarni guruhlarga ajratish jarayonida psixologik-pedagogik tashxisdan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur tashxis o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlari, qiziqishlari, ijodiy salohiyati, bilim va ko'nikmalarini aniqlash

imkonini beradi. Natijada o'quvchilarni ularning imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda guruhlarga taqsimlash uchun zarur ma'lumotlar shakllanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, psixologik-pedagogik tashxis asosida tashkil etilgan guruhlar o'quvchilarning tasviriy faoliyatga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, ijodiy fikrlashini rivojlantiradi hamda dars jarayonidagi faolligini oshiradi. Bunday yondashuv har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olishga, ularning qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga va o'zlashtirish darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, o'quvchilarni to'g'ri guruhlash orqali o'qituvchi ta'lim jarayonini samarali tashkil etishi, differensial va individual yondashuvni amalga oshirishi mumkin. Bu esa o'quvchilarning o'zaro hamkorlik qilish, fikr almashish, bir-biridan o'rganish va jamoada ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda diagnostik metodlardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish va ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at fanida o'quvchilarni guruhlarga ajratishda psixologik-pedagogik tashxisni tizimli ravishda qo'llash ta'limning shaxsga yo'naltirilgan modelini amalga oshirishga, o'quvchilarning ijodiy va intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga hamda yuqori pedagogik natijalarga erishishga xizmat qiladi. Shu sababli ushbu tashxis usullarini ta'lim amaliyotiga keng joriy etish va ularni takomillashtirib borish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tasviriy san'at. Umumiy O'rta ta'lim maktablaring 5-sinfi uchun darslik / Kuziev T., Abdirasilov A., Nurtoev O., Sulaymonov A. — T.: O'zbekiston.2015. -128 b.
2. Usmonov O. Komoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. — Toshkent.: Fan. 1997. 256 b.
3. Xudoyorova O. O'zbekiston maktablarida tasviriy san'atdan dars samaradorligini oshirishning ba'zi masalalari.-T.: O'qituvchi. 1995.20 b.

4. Xudoyorova O., Nurtaev O'. Tasviriy san'at o'qitishning zamonaviy texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Nizomiy nom. TDPU. —T. : 2007. 54 b.
5. Qobilov Sh.R. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi (Pedagogik tasvirlar ishlash). —T.: Fan va texnologiya. 2014. -136 b.
6. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. -T.: Fan. 2004.- 250 b.